



AHOLI MIGRATSIYASINING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Yaxshiboyeva Muhayo G'ulom qizi,

Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi,

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Migratsiya uzluksiz ijtimoiy jarayon sifatida doimiy yuz berib borganligi uchun ham uni baholab borish, tartibga solish va boshqarish zarurati yuzaga keladi. Shundan kelib chiqib uning ijobiy va salbiy jihatlari, muammolarini aniqlagan holda yechimlarini taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Maqolada shu boradagi fikrlarga alohida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: migratsiya, fuqaroning huquqlari, mehnat migratsiyasi, tashqi migratsiya, mayatiksimon migratsiya.

Kirish

Aholi migratsiyasi aholini bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib kelishi yoki aholining ma'lum qismi asosan o'qish, ishlash maqsadida o'zlariga yaqin hududga bormoqda. Hozirda mehnat migratsiyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining migratsiyasining o'ziga munosib ish va yuqori daromad topish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi hisoblanadi.

Xalqaro maydonda glaballashuv jarayonlarining tobora shiddat bilan rivojlanib borishi bugungi kunda inson huquqlarining, erkinligining muhofaza qilish hamda uning kafolatlarini kuchaytirish masalasi dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Har bir shaxsning o'z davlat hududida, butun jahon bo'ylab ko'chib yurishi, yashash joyini to'sqinliklarsiz o'zgartira olish huquqining mustahkamlanib borishi inson huquqlarining mavjudligi va amalda ta'minlanganligi inson erkinligini belgilovchi muhim ijtimoiy-siyosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Aholining yashash joyini o'zgartish maqsadida bir manzildan ikkinchisiga ko'chishi (harakati) aholi migratsiyasidir. Bazan, adabiyotlarda aholining qishloqdan shaharga yoki



aksincha shahardan qishloqqa borib ishlab qaytishini mayatniksimon migratsiya deb ataydi. Bu to'g'ri emas, albatta. Chunki qishloqdan shaharga yoki shahardan qishloqqa ishga kelib kechqurun uyga qaytishda, migratsiyaning eng muhim sharti bajarilmaydi- aholi yashash joyi o'zgartirilmaydi. Shuning uchun bu jarayonning aholining mayatniksimon harakati deb atash muvofiqdir. Professor V.A. Iontsevning fikriga ko'ra, migratsiya aholining takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir o'tkazishi mumkin, ya'ni demografik jarayon sifatida faqatgina ko'chishlar yoki qaytmaydigan migratsiya shaklida yuzaga chiqishi mumkin va faqat ushbu shaklda demografiya predmetiga kiradi. Migratsiya demografik jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkazishi bilan birga, u mamlakatning demografik rivojlanishiga ham bilvosita ta'sir o'tkazishi mumkin.

Respublika tashqi migratsiyasining yana bir oqimi uzoq xorij mamlakatlariga, xususan Koreya Respublikasi va Yaponiyaga yo'naltirilgan. Ko'p yillardan buyon Koreya Respublikasi asosiy sheriklardan biri bo'lib kelmoqda. Bu mamlakatga 20 yil davomida ishga qariyb, 50 ming kishi jo'natilgan bo'lib, uzoq xorijga rasmiy ravishda ishga yuborilganlarning umumiy sonidan asosiy qismni tashkil qiladi. 1995-yil O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'rtasida imzolangan kelishuvga muvofiq, O'zbekistonliklar - Sanoat Stajirovka Dasturi asosida aholini ixtiyoriy ko'chirish davlat dasturlarini amalga oshirib kelmoqda. 1995-2007 yillar oralig'ida - Sanoat Stajirovka Dasturi asosida Koreya Respublikasida 19 mingta O'zbekistonliklar ish bilan ta'minlanishi uchun sharoit yaratildi. 2003- yildan boshlab Koreya hukumati xorijdan ishchi kuchini yollashda - Bandlikka Ruxsat berish Tizimi (Employment Permit System-YeRS) asosida faoliyat ko'rsata boshladi.

Mehnat migrantlarining 3/5 qismi o'rta maxsus ma'lumotga ega shaxslar bo'lib, so'nggi yillarda bu ko'rsatkich muntazam ortib bordi. So'nggi 10 yilda bu ko'rsatkich 2 barobarga ortdi. Bu esa o'rta ma'lumotli migrantlar ulushining deyarli 2 barobar kamayishiga olib keldi. Dinamikaning bunday o'sishiga asosiy sabab tashqi migratsiyada 30 yoshgacha hamda kasb-hunar kollejlari bitiruvchisi bo'lgan yoshlar ulushining keskin ortib borishi bilan izohlanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoning turli mamlakatlarida o'rtacha 232 million nafar migrant yashaydi. Ularning aksariyati sayyoramizning shimoliy mamlakatlari hissasiga



to'g'ri keladi. Shuningdek, pandemiya sharoiti, ya'ni choralarning joriy qilinganligi va davlatlararo transport qatnovlarining cheklanganligi tufayli muhojirlarning mehnat bozoridagi ish o'rinlarining keskin kamayishi va ish haqi miqdorining tushishi kabi qiyinchiliklarga sabab bo'ldi. Pandemiyaning va boshqa favqulodda vaziyatlarning aholi migratsiyasiga salbiy ta'siri shundan iboratki, aksariyat mehnat muhojirlari iqtisodiyotning norasmiy sektorida vaqtincha va huquqlari himoyalanganmagan ishlarda faoliyat yuritishiga olib keladi. Ko'pgina mamlakatlarda ushbu toifadagi insonlar o'sha davlatdagi milliy mehnat qonunchiligiga amal qilmaganligi sababli, pandemiya kabi favqulodda vaziyatlarda ularning ijtimoiy va iqtisodiy himoya choralaridan foydalana olmaslik xavfi yuqori bo'lgan. Pandemiya paytida ba'zi mamlakatlarda mehnat muhojirlariga nisbatan diskriminatsiya, ishdan bo'shatish, mehnat tashvishga solayotgan mintaqaviy va mahalliy nizolar, ishsizlik, qashshoqlik kabi muammolar zahirida yanada ahamiyatli bo'ldi.

UNISEF tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ota-onalarning migratsiyasi, xususan, bolaning ta'lim olishiga, sog'ligiga, ovqatlanishiga ijtimoiy holatiga salbiy ta'sir o'tkazib, tushkunlik (depressiya) holatini keltirib chiqarishi aniqlangan. O'zbekistonda so'nggi yillarda tashqi mehnat migratsiyasi tizimini tartibga solish borasidagi islohotlar O'zbekiston yangi hukumatining asosiy vazifasiga aylandi. Mamkakatimiz rahbari qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish jarayonida mehnat migratsiyasiga ham e'tibor qaratmoqda. Davlat rahbari bu borada quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi; - ... davlat tashrifi chog'ida mehnat migratsiyasi bo'yicha muhim kelishuvga erishdik. Bizning bu boradagi pozitsiyamiz aniq, odam qayerda bo'lsa ishlashi, oilasi, bola-chaqasini boqishi kerak.

XXI asr boshlarida dunyo hududlarida xalqaro migratsion jarayon kuchaydi. Mutaxassislar xalqaro migratsiyada ishtirok etayotgan aholini asosan olti guruhga ajratganlar;

- 1.Oilaviy va boshqa sabablarga ko'ra, doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ketgan immigrantlar.
- 2.Migrant- mehnatkashlar.
- 3.Nolegal immigrantlar.
- 4.Qochoqlar.



5. Talabalar, stajor-tadqiqodchilar, ilmiy xodimlar va o'qituvchilar.

6. Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar-turistlar, dam oluvchilar, anjumanga qatnashuvchilar.

Aholi migratsiyasining yuqorida sanab o'tilgan salbiy jihatlari bilan bir qatorda ijobiy jihatlari ham mavjud bo'lib ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin. Xususan, talabalarning o'qish maqsadida chet davlatlariga borib chet davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganib kelishi. Ilmiy xodim va o'qituvchilarning o'z malakalarini oshirib qaytishlari bularga misol bo'la oladi. Mamlakatimizda migrantlar huquqlarini kafolatlash yuzasidan qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida tashqi migratsiyani tartibga solish maqsadida 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini keltirib o'tishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6012 Farmoni bilan tasdiqlangan "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy Strategiyasi"da migrantlarning huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro hujjatlarga qo'shilishi masalalarini ko'rib chiqish, mehnat migrantlari va ular oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish, mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha BMT shartnomaviy organlari va Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, migratsiya sohasidagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlash, mehnat migrantlari huquqlariga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi ilgari surildi.

O'zbekiston aholisining asosiy qismi Rossiya va Qozog'istonda ishlaydi. Ammo so'nggi yillarda mehnat migratsiyasi geografiyasi o'zgara boshladi - AQSH, Turkiya, Qozog'iston, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya hamda Birlashgan Arab mamlakatlariga ishchi kuchi oqimining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga mehnat migratsiyasi salbiy oqibatlarini namoyon qilmoqda; 1) Odatdagi turmush tarzining buzulishi; 2) Oilaviy ajrimlarda farzandlarning yetim o'sishi; 3) Ko'pgina mehnat migrantlarining mehnat imkoniyatlaridan samarasiz foydalanishi; 4) Eng serg'ayrat va ishchan ish kuchining respublikadan chiqib ketishi; 5) Respublika mehnatga layoqatli aholisining bir qismidan mahrum bo'lish xavfi.



XULOSA

Aholi migratsiyasining oldini olish maqsadida aholini “Bandlik va mehnat munosabatlari” vazirligi ish olib bormoqda. Aholi migratsiyasini kamaytirish uchun ko‘proq ish o‘rinlari yaratilmoqda. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun bir qancha qulayliklar yaratilmoqda.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Inqiroz ichidagi inqiroz; COVID-19 va xalqaro migratsiya.
2. <https://revive.uz/post/inqiroz-ichidagi-inqiroz-covid-19> va xalqaro migratsiya.
3. Dilshoda Turg‘unboyeva-Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta’siri (BMI) Andijon 49 bet.
4. Young-bum Park. South Korea; Balancing Demnad with strict controls www.migrationinformation.com.
5. Akbarjonovich M. A. MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 628-631.
6. MANSUROV A. Development stages of migration from a historical point of view //UzMU xabarlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.
7. Akbarjonovich M. A. Migratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – T. 24. – №. 2. – C. 32-34.